



## THE INFLUENCE OF LIBERALISM ON THE DEVELOPMENT OF WESTERN EUROPE AND THE UNIQUENESS OF THE IDEAS OF NEOLIBERALISM

*Mubarak Shodmonqulova*

Associate Professor

Gulistan State University

Gulistan, Uzbekistan

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Utilitarianism, tendency, civil society, free market, feudal, community, workshop, capital, neoliberal, ideology.

**Received:** 11.02.25

**Accepted:** 13.02.25

**Published:** 15.02.25

**Abstract:** This article reveals the impact of liberalism on the development of Western Europe and the specific characteristics of the ideas of neoliberalism, and provides new conclusions based on the scientifically based opinions of a number of politicians.

## LIBERALIZMNING G'ARBIY YEVROPA TARAQQIYOTIGA TA'SIRI VA NEOLIBERALIZM G'oyalarining o'ziga xosligi

*Muborak Shodmonqulova*

Dotsent

Guliston davlat universiteti

Guliston, O'zbekiston

### МАҚОЛА HAQIDA

**Kalit so'zlar:** Utilitarizm, tendentsiya, fuqarolik jamiyati, erkin bozor, feodal, jamoa, tsex, kapital, neoliberal, mafkura.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada liberalizmning g'arbiy Yevropa taraqqiyotiga ta'siri va neoliberalizm g'oyalarining o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan bo'lib, bir qator siyosatchilarning ilmiy asoslangan fikrlari asosida yangi xulosalar berildi.

## ВЛИЯНИЕ ЛИБЕРАЛИЗМА НА РАЗВИТИЕ ЗАПАДНОЙ ЕВРОПЫ И СВОЕОБРАЗИЕ ИДЕЙ НЕОЛИБЕРАЛИЗМА

*Мубарак Шодмонкулова*

Доцент

Гулистанская государственная университет

Гулистан, Узбекистан

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** Утилитаризм, гражданско

е общество,

**Аннотация:** В статье раскрывается влияние либерализма на развитие Западной

свободный рынок, феодальный, сообщество, мастерская, капитал, неолиберальный, идеология.

Европы и специфика идей неолиберализма, а также приводятся новые выводы, основанные на научно обоснованных мнениях ряда политиков.

**Kirish.** Mumtoz liberalizm ijtimoiy falsafa, siyosiy fan (polditologiya) va huquqning rivojlanishiga kuchli tasir o'tkazadi. Ta'kidlash kerakki, ijtimoiy falsafa, madaniyat nazariyasi, politologiya va hozirgi zamon huquq falsafasiga oid ko'plab qoidalar ma'lum ma'noda liberal g'oyalar zamirida shakllangan. Shuning uchun ham ijtimoiy-siyosiy va huquqiy hodisalarning liberalizm nuktai nazaridan talqin etilishi va tushuntirilishi ularning mohiyatini to'liqroq ochib beradi, hozirgi zamon jamiyatining hukmron qarashlariga mos keladi. Shu ma'noda, tarix sinovlariga dosh berib, hayotchan va ilg'or ta'limot sifatida namoyon bo'lgan liberal qarashlar tizimi bugungi kunda aksariyat mamlakatlar iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayotida ustuvor ahamiyat kasb etayotgani tabiiy.

Liberal qarashlarda asosiy o'rinni kapitalizm va demokratiya nisbati, demokratik boshqaruv shakllarining mohiyati va taqdiri, inson huquq va erkinliklariga oid muammolar egallaydi. Aynan liberallar ularning yuzaga chiqishi va tasdiqlanishiga katta hissa qo'shganligi tufayli bu tabiiy hol xisoblanadi. Ular mafkuraviy va siyosiy plyuralizm tamoyillariga alohida e'tibor qaratadi. Liberallar plyuralistik demokratiya kapitalizmning ijtimoiy-siyosiy tizim sifatida mavjudligi va yashashiga kafolat bo'lishini asoslab berdi. Ular fikricha, erkin iqtisodiyotsiz hech qanday erkin jamiyat bo'lmaydi, chunki, ularning nazarida bozor xo'jaligi va huquqiy davlat bir xil qadriyatlarga asoslanadi. Bu fikr Germaniya liberallarining 1971 yildagi "Frayburg tezislari"da aniq ifodalab berilgan, ya'ni: "...erkinlik mulkchilikka extiyoj sezmoqda". Bunda barcha e'tibor uning erkinlik, tenglik va adolatlilik nisbati tugrisidagi masalaga taalluqli jihatiga qaratilgan. Mazkur masala liberallarda boshqa ijtimoiy-siyosiy oqimlarga nisbatan kengroq va chuqurroq ko'rib chiqilgan. Balki, aynan shuning uchun liberallar taklif etayotgan xulosalarda ziddiyatlar, farqlar, nozik jihatlar ko'p bo'lsa kerak.

**Tadqiqotning usullari.** Liberalizmning inson, uning erkinligi, shaxsiyatining yuksak maqomi, kadr-qimmati va unga xos ajralmas haq-huquqlarga tayangani mazkur g'oyaning keng ma'noda ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy amaliyotga aylanishiga imkon berdi. S.Alekseevning ta'kidlashicha, "Jamiyatdagi har qanday tabiiy organizmga xos bo'lgan usish, rivojlanish va shakllanish tendentsiyalari ongli mavjudotlar hamjamiyatini xarakterlaydigan eng asosiy element - inson erkinligi orqali amalga oshiriladi. Shundagina shakllanish, o'sish va rivojlanish tendentsiyalari o'z-o'zidan tabniy tarzda tatbiq etiladi" [1: 303-b]. Bunday tendentsiyalar siyosiy partiyalar va harakatlarda, liberal dunyoqarash sohiblari faoliyatida, ko'plab rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayotida yaqqol namoyon bo'ladi.

Bu o'rinda ta'kidlash joizki, shaxs erkinligi falsafasi G'arbiy Evropa tamaddunining gullab-yashnashi va takomili, uning g'oyaviy, siyosiy va xuquqiy asosini tashkil etadi. Aynan shuning zamirida "huquqiy davlat" va "fuqarolik jamiyati" tushunchalari, bozor iktisodiyoti va bozor munosabatlarining zamonaviy ko'rinishlari namoyon bo'ldi, rivojlandi va sayqal topdi. Bugungi kunda liberalizmning erkin bozor, raqobat nafaqat iqtisodiyot, balki ijtimoiy munosabatlardagi raqobat, hurfikrlilik, aralashmaslik, xususiy mulkning

daxlsizligi va boshqa tamoyillarini inkor etadigan odam bo‘lmasa kerak. Bir- biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan mazkur tamoyillarning har biri jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma’naviy rivojida alohida ahamiyat kasb etadi.

I.I.Kalnoy va I.N.Lopushanskiylar esa “xususiy mulk erkinlashtirilgan, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy huquqlar rasmiylashtirilgan va ta’minlangan jamiyatni”[1; 2:9-b] fuqarolik jamiyatni deb hisoblashadi. A.P.Butenko va A.V.Mironovlar bu haqda shunday deydi: “Fuqarolik jamiyatni deganda, bozor va demokratik huquqiy davlatchilik sharoitlarida erkin va teng huquqli shaxslarning davlat belgilamagan o‘zaro munosabatlarining xilma-xilligi tushuniladi”. Ushbu olimlar tomonidan keltirilgan fikrlarda erkin bozorning vujudga kelishi, ya’ni iqtisodiyotning erkinlashtirilishi muhim belgi sifatida qaralgan.

V.Kudryavtsev va E.Lukashevalar nazarida: Individualizm liberal jamiyatning asosiy shiori va mumtoz liberalizmning etakchi g‘oyasiga aylandi... Insonni feodal davlatga batamom tobe qilgan, jamoa, tsex, korporatsiya va boshqalarga uni butunlay singdirib yuborgan holat o‘rniga paydo bo‘lgan individualizm tamoyili ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy rivojlanishning qudratli omiliga aylandi.

**Natijalar.** Liberalizm uchun individ erkinligi va uning ijtimoiy mas’uliyati bir- biri bilan chambarchas bog‘liq. Uning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy erkinligini xukukiy Davlatgina ta’minlashi mumkin. Shuningdek, liberalizmni “gumanizm” tushunchasidan ajratib bo‘lmaydi. Chunki, insonning haq-huquq va erkinliklari ustuvorligi liberalizmning asosiy g‘oyaviy manbaini tashkil etadi.

Liberalizmning yangi yo‘nalishi - utilitar falsafani Bentam, J.S.Mill va boshqa faylasuflar rivojlantirgan. Agar mumtoz liberalizm davlatning iqtisodiyotga aralashishiga mutlaqo qarshi bo‘lsa, utilitar falsafa ba’zan davlat iqtisodiyotga ta’sir etishi mumkinligini ko‘rsatadi. Lekin davlat, iqtisodiy erkinlikni taqiq etmasdan, faqat yordamlashishi mumkin. Siyosiy liberalizm shaxslarning davlat hayotida ishtirot etish huquqini tan olib, saylovlarda qatnashishini shart deb hisoblaydi. Bundan tashqari, siyosiy liberalizm fuqarolarga vijdon erkinligi, so‘z va matbuot erkinligini, yashash joyini tanlash huquqini kafolatlaydi.

Shu o‘rinda kayd etish joizki, utilitarizm (lot. *utilitas*-foyda, naf) nazariyasi XIX asrda Angliyada paydo bo‘lgan va liberal burjua qatlami manfaatini ifodalagan. Bentam asos solgan utilitarizmning asosiy tamoyili shaxsiy manfaatlarni qondirish vositasi bilan “eng ko‘p sonli kishilarga eng ko‘p baxt ta’minlab berishdan” iborat. Shu bilan birga, utilitarizmga ko‘ra, xatti-harakatning axloqiyligi, uning natijasida hosil qilingan xuzur-halovat va azob-uqubatlarning o‘zaro muvozanatini matematik tarzda hisoblab chiqish mumkin. Utilitarizm iborasi ilk bor ingliz faylasufi J.S.Mill tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. Aynan J.S.Mill tufayli utilitarizm ta’limoti foydalilik tamoyiliga asoslangan axloqiy nazariyaning alohida yo‘nalishi sifatida etika tarixiga kiritilgan. J.S.Mill utilitarizmga xuzur-halovatni sifat jihatidan baholash tamoyili, ruxiy lazzatlarni jismoniy lazzatlardan afzal ko‘rish talabini kiritgan[3:33-b]. Utilitarizm ba’zi hollarda davlat va xukuk funktsiyalarini tushunishga ham asos qilib qo‘yiladi.

Liberalizm hokimiyat demokratik tizimining barcha ilg‘or ijtimoiy-falsafiy va siyosiy-xuquqiy kontseptsiyalarini o‘zida mujassam etib, inson haq-huquq va erkinliklarini nazariy jihatdan asoslab, uning

ustidan o‘rnatilgan davlat va jamiyat hokimiyatining chegaralarini aniklab berdi. Liberalizmning davlat va jamiyat hayotini demokratlashtirishga yo‘naltirilgan g‘oya va tamoyillari, xususan, mazkur ta’limotning inson xukuk va erkinliklarining ustuvorligi, xususiy mulk va tadbirkorlikning daxlsizligi hamda uning faoliyatiga ma’muriy tizim aralashuvining cheklanishi, so‘z va kabi matbuot erkinligining kafolatlanishi, fikrlar xilma-xilligi fundamental tamoyillari ko‘plab rivojlangan davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini belgilab bergani, huquqiy demokratik davlat hamda fuqarolik jamiyati barpo etishga intilayotgan qator rivojlanayotgan mamlakatlarning har jihatdan yuksalib borishiga xizmat qilayotgani shubhasiz. Shu ma’noda, liberalizmni oliv umuminsoniy qadriyat, deya ta’riflash mumkin.

**Muhokama.** Ma’lumki, liberal-demokratik g‘oyalar neoliberalizm ko‘rinishidagi yondashuvlarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Neoliberalizmning klassifikatsiyasi asosida bir qator erkinliklarni davlat mexanizmlari vositasida cheklash imkoniyati mavjud bo‘lib, bundan ko‘zlangan maqsad ijtimoiy muammolarniadolat va birdamlik tamoyillariga mos holda echish edi. Ammo neoliberalizm klassifikatsiyasining siyosiy amaliyoti shunday murakkablikka duch keldiki, Ikkinchijihon urushidan keyin bir qator liberal, sotsial-demokratik va konservativ partiyalarning o‘ziga xos mafkuraviy integratsiyasi ro‘y berdi. Hozirgi zamon liberalizmi rivojlanishining muhim xususiyati shundaki, liberal yo‘nalishdagi siyosiy partiyalarning hammasi ham liberal dunyokarash tamoyil va g‘oyalariga bir xilda amal qilmayotirlar. Shu munosabat bilan K.S.Gadjiev liberalizm taqdiri to‘g‘risida gapirganda, g‘oyaviy-siyosiy oqim sifatidagi liberalizm va liberal partiyalar o‘rtasidagi tafovutni farqlash lozim, deb ko‘rsatadi[4:388-b].

Bugungi kunda liberal falsafaning u yoki bu jihatlariga bag‘ishlangan adabiyotlar etaricha mavjud. Adabiyotlarda jamiyat, davlat, siyosiy tuzum va alohida individ munosabatlari, kapitalizm va demokratiya, erkinlik va tenglik ijtimoiy tenglik vaadolat kabi ko‘plab boshqa mazmundagi masalalarga alohida etibor qaratilmoqda. Agarda klassik liberalizm mualliflariga muayyan ismlarni ajratish mumkin bo‘lsa, bugungi kundagi har bir ism liberal falsafa, nazariya yoki amaliyotning alohida yo‘nalishini tashkil etadi. Bu hol, xususan, K.S.Gadjievga quyidagi xulosani chiqarish uchun asos bo‘ldi: ‘‘Liberalizmni qayta yaratish va yangilash, uning g‘oyalarini qayta ko‘rib chikish va bugungi realliklarga moslashga oid urinishlar yangi modifikatsiya va variantlarning butun bir majmunni keltirib chiqardi-ki, uni aniq va batamom shakllangan ijtimoiy-siyosiy fikr turi va oqimi sifatida muvofiqlashtiruvchilarni kidirib topishda sezilarli darajada murakkabliklar tug‘dirdi’’[5:7-9-b].

Neoliberal nazariy-metodologik ishlanmalarning har bir turida o‘ziga xos siyosiy ustuvorliklar mavjud bo‘lib, qoidaga binoan, ular muayyan mamlakatning muammolariga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Shuning uchun neoliberal tendentsiyalarni hech ikkilansmasdan mazkur siyosiy mafkuraning davrning muayyan holatida dolzarb hisoblangan va ijtimoiy taraqqiyotning o‘ziga xos vazifalarini aks etirgan milliy yoki mintaqaviy shakllari sifatida ifodalan mumkin. Bu tafovutni jahonning turli davlatlaridagi jamiyatlar liberal rivojlanishining dasturlarini taqqoslaganda osonlikcha ilg‘ab olish mumkin. Masalan, AQSh yoki MDHning har qanday mamlakati misolida olsa bo‘ladi. Shunga muvofik bu sohalar ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy,

madaniy va boshka shart-sharoitlar hamda rivojlanganlik darajalarining mos kelmasligi liberalizmning milliy yoki mintaqaviy amaliyotini umumiylazariya bilan tenglashtirma kolipliyondashuvni qo'llash imkoniyatini bermaydi.

Siyosiy amaliyotda qo'llaniladigan g'oya va tamoyillar to'plami bu o'rinda turlicha bo'ladi. Ularning birikuvi muayyan milliy ijrodagi neoliberalizm mazmunini ifoda etadi. Demak, O'zbekiston milliy mafkurasining shakllanishi jarayonida liberalizm siyosiy g'oyalaring rivojlanishi muammosini ko'rib chiqish neoliberal yo'nalishlarni tahlil etish demakdir. Aniqlangan xususiyatlar bu erdagiga liberalizm milliy variantining qoidasini tashkil etadi. Ehtimol, bu variant zamonaviy siyosatshunoslikda qabul qilingan liberalizm ikki guruhi ko'rinishlarining birontasiga ham mos kelmasligi mumkin, ya'ni birinchi gurux - klassik liberalizm, "neoliberalizm", AQShdagi Chikago maktabiga xos bo'lgan liberal kontseptsiyalar va boshqalarni o'z tarkibiga oladi; ikkinchi guruh - sotsial-demokratiya va konservativizm orasida o'ttacha holatni egallaydigan g'oyaviy-siyosiy konstruktsiyalardan tashkil topib, uni umumlashgan xolda ko'pincha "ijtimoiy liberalizm" deb ham atashadi. Bu erda gap shundaki, noklassik liberalizm, na uning keyingi ko'rinishlari sobiq ittifoq tarkibiga kirgan davlatlar asosida va sharoitlarida rivojiana olmadi.

**Xulosa.** Neoliberalizmning jamoachilik vujudga kelishi va ijtimoiy munosabatlardizimida davlatning roliga nisbatan vujudga kelgan munosabati - iqtisodiyotning, xukuqiy va siyosiy tizimning, ijtimoiy-madaniy soxalarning rivojlanishi singari ijtimoiy munosabatlardan evolyutsiyasining qonuniy natijasidir. Agarda davlatning siyosiy negizlari va Konstitutsiyaga liberal tamoyillar asos qilib olingan bo'lsa, uning hukumati liberal qarashlarni qo'llab-quvvatlayotgan va qabul qilingan yo'nalishni izchillik bilan amalga oshirayotgan bo'lsa, nima uchun davlatni inkor etish kerak? Buning ustiga davlatning aralashuviziz, uning mexanizmlarisiz, iqtisodiy, moddiy va resurs imkoniyatlarisiz liberalizmning maqsad va talablariga javob beradigan bir qator vazifalarni hal etish mumkin emas. Xususan, mulkdorlar sinfini kengaytirish masalalari va ularning rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini amalga oshirish institutlari hamda kafolatlari tizimini karor toptirish, individual erkinlik tamoyillarini egalitar asoslar, tenglik, birdamlik va adolatlilik tamoyillari bilan birlashtirish kabi masalalar shular jumlasidan.

Bu o'rinda liberalizm shunday dalilni anglashdan kelib chiqadiki, ya'ni ijtimoiy jihatdan himoya kilinmagan kishi erkin bo'lmaydi. Erkin jamiyatni rivojlanirish uchun ushbu vazifaga mos keladigan asos, shart-sharoitlar zarur. Shu bilan birga, zamonaviy neoliberalizmda davlat tuzilmalarining byurokratlashuvini chegaralashga, ularning fuqarolar shaxsiy hayotlariga aralashmasliklariga bozor munosabatlari ustuvorligini ta'minlash Va demokratik tartiblar hamda hokimiyatning muayyan guruhalr qo'lida jamlanishiga to'sqinlik qiladigan asosiy siyosiy xukuk va erkinliklarga rioya etishga oid etarlicha qat'iy talablar mavjud. Shuningdek, siyosiy va iktisodiy jarayonlar ishtirokchilariga ma'naviy talablarni ham kuchaytirmoqda.

Xullas, neoliberalizmda uning siyosiy-falsafiy asoslarining faqatgina moslashuvchanlik xususiyati namoyon bo'ldi. Liberalizm o'z mavjudligining butun tarixi davomida maqsadlari va asosiy tamoyillarining

birortasidan voz kechmadi. Ko'proq uning mafkuraviy va partiyaviy taktikasi, milliy funksiyalari va muayyan vazifalari, g'oyalari va tamoyillarining tarkibigina o'zgardi, xolos.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алексеев С.С. Философия права. Москва: Норма, 1997.
2. Калной И.И. Лопушанский И.Н. Гражданское общество. СПб, 2002.
3. Джон Стюарт Милл. Утилитаризм.- РостовНа Дону, Донской издателски1 дом . 2013.
4. Гаджиев К.С. Введение в политическую науку. -Москва: Логос, 1997.
5. Гаджиев К.С. Кризис или закат либерализма FF Власть, 2017, № 3.